ISSN 2181-371X
SJIF: 5.305 VOLUME 4 ISSUE 35
INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION

BANK OMONATI SHARTNOMASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Abdreymov Yusupbay Turdıbaevich
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Fuqarolik va biznes huquqi kafedrasi dotsent v.v.b., yu.f.f.d. (PhD)
E-mail: abdreymovyusupbay@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0000-0003-2255-9094
Ro‘ziyeva Ruxshona Ravshan qizi
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Yuridika fakulteti 3-kurs talabasi

Anotatsiya*: Mazkur maqolada bank omonatlari tushunchasi, ularning asosiy turlari va fuqarolar moliyaviy hayotidagi o‘rni haqida batafsil ma’lumot beriladi. Omonat hisobvaraqlarining turlari, foiz stavkalari, muddatli va muddatsiz omonatlar orasidagi farqlar, shuningdek, omonat ochish tartibi yoritilgan. Maqolada bank omonatlarining shaxsiy jamg‘arma madaniyatini shakllantirishdagi ahamiyati va ular orqali aholining moliyaviy barqarorligini ta'minlash imkoniyatlari tahlil qilinadi.*

Kalit so’zlar*: Bank omonatlari, omonat hisobvaraqlari, muddatli omonat, muddatsiz omonat, jamg‘arma madaniyati, depozit, omonat daftarchasi, omonat sertifikati, depozit sertifikati, bank omonatlari turlari.*

Bank omonatlari - bu jamg‘armalarni saqlash va ko‘paytirish uchun eng ommabop va ishonchli moliyaviy vositalardan biridir. Har bir insonning moliyaviy hayotida tejash, kelajak uchun mablag‘ jamg‘arish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, ko‘plab fuqarolar o‘z mablag‘larini banklarda omonat sifatida saqlashni afzal ko‘radilar. Bank omonatlari nafaqat shaxsiy moliyaviy barqarorlikni ta’minlash, balki jamiyatda jamg‘arma madaniyatini rivojlantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Omonat hisobvaraqlari orqali odamlar o‘z mablag‘larini xavfsiz joyda saqlash bilan birga, ular ustidan ma’lum foiz darajasida daromad olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa jamg‘armalarni ko‘paytirish va moliyaviy ehtiyojlarni yanada samarali qondirish imkonini yaratadi. Bugungi kunda banklar tomonidan taklif etilayotgan turli omonat turlari - muddatli, muddatsiz, qo‘shimcha omonatlar va boshqalar - mijozlarning ehtiyojlari, moliyaviy imkoniyatlari hamda tavakkalga munosabati asosida shakllantirilgan.

Shuningdek, bank omonatlari iqtisodiyotda barqarorlikni saqlashda ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular jamiyatdagi pul oqimini tartibga solishga, investitsiya

uchun resurslarni yaratishga yordam beradi. Shu bois, bank omonatlari jamiyatdagi moliyaviy madaniyat va iqtisodiy farovonlik darajasini oshirishda ajralmas vosita hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksida bank omonati shartnomasi tushunchasiga ta’rif berilib (759-modda), unda Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik Kodeksidan farqli ravishda, lotincha “depositium” - saqlashdan kelib chiqqan “depozit” atamasi qo'llanilmagan, shuningdek, bankning omonatchi pul mablag'larini “saqlash” majburiyati berilmagan. Bank omonati shartnomasi mustaqil shartnoma bo'lib, uning ildizlari qarz shartnomasiga borib taqaladi va u bank (qarzdor) bilan omonatchi (kreditor) o'rtasidagi kredit munosabatlarini rasmiylashtiradi. Fuqaro bilan tuziladigan bank omonati shartnomasi ommaviy shartnoma hisoblanadi. Demak, yuzaga kelgan munosabatlarga FKning 358-moddasida bunday shartnomalar to'g'risida ko'zda tutilgan umumiy qoidalar, xususan, xizmat ko'rsatuvchining shartnoma tuzishdan bosh tortishi ta’qiqlanishi, bir shaxsning boshqa shaxsga nisbatan afzal ko'rishi istisno etilishi, O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan tomonlar uchun majburiy bo'lgan qoidalarning chiqarilishi mumkinligi kabilar tadbiq etiladi. Bank omonati shartnomasi real bo'lib, omonatchi (boshqa shaxs) bankka omonat puli summasini berayotgan vaqtda tuziladi. Omonatchi bankdan faqat omonat puli summasini va u bo'yicha foizlarni qaytarishini talab qilish huquqiga ega bo'ladi, o'z sherigi oldida hech qanday majburiyat olmaydi. Bank omonat puli summasini va u bo'yicha foizlarni to'lashi shart. Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqqan holda, bank omonati shartnomasi bir tomonlama va haq evaziga tuziladigan shartnoma hisoblanadi[1].

Bank omonati shartnomasi bo‘yicha birinchi tarafdan (omonatchidan) qabul qilib olgan yoki uning nomiga kelgan pul summasini (omonatni) qabul qilib olgan ikkinchi taraf (bank) shartnomada nazarda tutilgan shartlar asosida va tartibda omonat summasini qaytarish va unga foizlar to‘lash majburiyatini oladi. Bank omonati shartnomasi omonat summasi bankka kelib tushgan kundan boshlab tuzilgan hisoblanadi. Fuqaro omonatchi bo‘lgan bank omonati shartnomasi ommaviy shartnoma deb hisoblanadi[2]. Pul mablag‘larini omonatlarga jalb qilish huquqiga qonunchilikda belgilangan tartibda litsenziya berilgan banklar ega bo‘ladilar. Bank omonati shartnomasi yozma shaklda tuzilgan bo‘lishi kerak. Agar omonatning qo‘yilganligi omonat daftarchasi, jamg‘arma (depozit) sertifikati yoki bank tomonidan

[1] Fuqarolik huquqi. Q.II/M. Abdusalomov, X. Azizov, B.Axmadjonov va boshq.; O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Toshkent Davlat yuridik instituti. - Toshkent: Adolat, 2007. 882 bet - Б.ц..

[2] O’zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi [2025 - yil 20-martgacha bo’lgan o’zgartirish va qo’shimchalar bilan] – T.: «Yuridik adabiyotlar publish», 2025-y. – 616-bet.

omonatchiga berilgan, qonunga muvofiq belgilangan bank qoidalarida va bank amaliyotida qo‘llaniladigan ish muomalasi odatlarida bunday hujjatlar uchun nazarda tutilgan talablarga javob beradigan boshqa hujjat bilan tasdiqlangan bo‘lsa, bank omonati shartnomasining yozma shakliga rioya qilingan hisoblanadi. Bank omonati shartnomasining yozma shakliga rioya qilmaslik bunday shartnomaning haqiqiy bo‘lmasligiga olib keladi. Bunday shartnoma o‘z-o‘zidan haqiqiy emas. Bank omonati shartnomasi omonatni talab qilinishi bilanoq berish (talab qilinguncha saqlanadigan omonat) yoki omonatni shartnomada belgilangan muddat tugaganidan keyin qaytarish (muddatli omonat) sharti bilan tuziladi.

Agar omonatchi muddatli yoki boshqa omonatni, talab qilib olinguncha saqlanadigan omonat bundan mustasno, muddat tugagunga qadar yoxud bank omonati shartnomasida ko‘rsatilgan boshqa holatlar yuz bergunga qadar qaytarib berishni talab qilish niyatida bo‘lsa, u o‘zining bu niyatidan bankni omonatni olishni mo‘ljallayotgan sanadan kamida bir oy oldin xabardor qilishi shart. Muddatli yoki boshqa omonat, talab qilib olinguncha saqlanadigan omonat bundan mustasno, muddat tugagunga qadar yoxud bank omonati shartnomasida ko‘rsatilgan boshqa holatlar yuz bergunga qadar omonatchining talabi bilan unga qaytarilgan hollarda, agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, omonat yuzasidan foizlar to‘lanmaydi. Bank omonatchiga omonat summasi uchun bank omonati shartnomasida belgilanadigan miqdorda foizlar to‘laydi. Bank omonati shartnomasida to‘lanadigan foizlar miqdori haqida shart bo‘lmagan taqdirda, bank talab qilib olinguncha saqlanadigan omonatlarga to‘lanadigan miqdorda foizlar to‘lashi shart. Agar bank omonati shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, bank talab qilib olinguncha saqlanadigan omonatlarga to‘lanadigan foizlar miqdorini o‘zgartirish huquqiga ega. Bank foizlar miqdorini kamaytirgan taqdirda, foizlarning yangi miqdori foizlar kamaytirilganligi haqida omonatchilarga xabar berilganidan keyin qo‘yilgan omonatlarga nisbatan qo‘llanadi. Agar bank omonati shartnomasida boshqa muddat nazarda tutilgan bo‘lmasa, ushbu xabarga qadar qo‘yilgan omonatlarga nisbatan kamaytirilgan foizlar miqdori tegishli xabar berilgan paytdan bir oy o‘tganidan keyin qo‘llanadi.

Omonatni muayyan muddat o‘tgach yoki shartnomada nazarda tutilgan vaziyatlar yuz berganidan keyin qaytarish sharti bilan qo‘yilgan omonat yuzasidan bank omonati shartnomasida belgilangan foizlar miqdori, agar shartnomada boshqacha tartib belgilangan bo‘lmasa, bank tomonidan bir tomonlama kamaytirilishi mumkin emas. Bank omonati summasiga foizlar omonat bankka tushgan kunning ertasidan boshlab, to u omonatchiga qaytarilgan yoki boshqa asoslarga ko‘ra omonatchining hisobvarag‘idan o‘chirilgan kundan oldingi kungacha yoziladi. Omonatchining

hisobvarag‘i xatlanganligi oqibatida bank ushbu hisobvaraqdagi pul mablag‘laridan foydalana olmagan davr uchun foizlar yozilmaydi. Agar bank omonati shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, bank omonati summasiga foizlar har bir oy o‘tganidan keyin uning talabi bilan omonat summasidan alohida to‘lanadi, bu muddatda talab qilib olinmagan foizlar esa foizlar yoziladigan omonat summasiga qo‘shilib boradi. Omonat qaytarilganida shu paytgacha yozilgan hamma foizlar to‘lanadi[3]

Bank omonati shartnomasida egasining nomi ko‘rsatilgan omonat daftarchasi berish nazarda tutiladi. Egasining nomi yozilgan omonat daftarchasi fuqaro bilan bank omonati shartnomasi tuzilganligining hamda omonatga pul mablag‘lari qo‘yilganligining yozma isboti bo‘lib hisoblanadi. U qimmatli qog‘oz hisoblanmaydi va bitta hujjat tarzida rasmiylashtirilgan bank omonati shartnomasi bilan birga yoki shartnomasiz ham berilishi mumkin. Agar bank omonati shartnomasi bitta hujjat tarzida tuzilgan va omonat daftarchasi biron sababga ko‘ra rasmiylashtirilmagan bo‘lsa, pul mablag‘larini kiritilganlik fakti bank pattasi, kassir tomonidan tasdiqlangan kirim kassa orderi bilan tasdiqlanishi mumkin

Omonat daftarchasida FK 769-moddasida ko‘rsatilgan bir qator ma’lumotlar chunonchi, qo‘yilgan va olingan pul mablag‘lari, bankka taqdim qilinganda hisobvaraqda qolgan pul mablag‘lari haqida ma’lumotlar bo‘lishi lozim. Omonat daftarchasi doim omonatchida saqlanishi tufayli fuqarolarning banklardagi omonatlari bo‘yicha amalga oshiriladigan operatsiyalarni unda aks ettirish bir qator xususiyatlarga ega. Shu boisdan uchinchi shaxslar tomonidan (FK 767- modda) hisobvaraqqa qo‘shimcha mablag‘ qo‘yilganligiga doir ma’lumotlar omonatchi bankka tashrif buyurguniga qadar omonat daftarchasida aks etmaydi. Demak, FK 769-moddasida prezumpsiya mavjud bo‘lsa ham, omonat daftarchasi har doim ham omonatning holatini obyektiv ravishda ifodalay olmaydi.

Omonatni berish (naqd yoki naqd pulsiz shaklda), foizlar to‘lash va boshqa operatsiyalarni amalga oshirish bankka omonat daftarchasi taqdim qilingan taqdirdagina amalga oshirilishi lozim. Omonat daftarchasi yo‘qotilgan yoki taqdim etish uchun yaroqsiz holga kelganligi uchun maxsus qoidalar belgilangan. Egasining nomi yozilgan omonat daftarchasi omonat egasining arizasiga ko‘ra yangi omonat daftarchasi bilan almashtirilishi lozim.

[3] O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksiga sharh: Professional sharhlar. T 2./O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. — Toshkent: Baktria press, 2013. 912 b.

Omonat (depozit) sertifikati egasining nomi yozilgan qimmatli qog‘oz bo‘lib, bankka qo‘yilgan omonat summasini ham, omonatchining (sertifikat saqlovchining) belgilangan muddat tamom bo‘lganidan keyin sertifikatni bergan bankda yoki ushbu bankning istalgan filialida omonat summasini va sertifikatda ko‘rsatib qo‘yilgan foizlarni olish huquqini ham tasdiqlaydi. Omonat (depozit) sertifikati pul to‘lash uchun muddatidan oldin taqdim etilgan taqdirda bank, agar sertifikatning shartlarida foizlarning boshqacha miqdori belgilab qo‘yilgan bo‘lmasa, omonat summasini va talab qilib olinguncha saqlanadigan omonatlar bo‘yicha to‘lanadigan foizlarni to‘laydi[4].

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2008-yil 24-sentabrda 1859-son bilan ro‘yxatga olingan «Banklarning depozit (omonat) sertifikatlarini chiqarish va muomalada bo‘lish tartibi to‘g‘risida»gi Nizom talabiga ko‘ra, depozit (omonat) sertifikati — bankka qo‘yilgan depozit (omonat) summasini va omonatchining (sertifikat saqlovchining) depozit (omonat) summasini hamda sertifikatda shartlashilgan foizlarni sertifikatni bergan bankdan yoki shu bankning istalgan filialidan belgilangan muddat tugaganidan keyin olish huquqini tasdiqlovchi noemissiyaviy egasining nomi yozilgan qimmatli qog‘oz hisoblanadi. Sertifikatlar blankalar tarzida hujjatli shaklda chiqarilishi belgilangan. Sertifikat blankasida sertifikatni chiqarish va uning muomalada bo‘lish shartlari shu jumladan, talab qilib olish huquqidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish hamda sertifikat yo‘qotilganda sertifikat bo‘yicha huquqlarni qayta tiklash tartibi aks ettirilgan bo‘lishi lozim. Sertifikatlar ikki turda a) «depozit sertifikatlari» - yuridik shaxslar uchun; b) «omonat sertifikatlari» - jismoniy shaxslar uchun chiqarilishi mumkin. Sertifikatni tovarlar oldi-sotdisi yoki ko‘rsatilgan xizmatlar (ishlar) uchun hisob-kitob qilishda to‘lov vositasi sifatida qo‘llash mumkin emas. Depozit sertifikatlarining oldi-sotdisi va ular bo‘yicha summalarni to‘lashga doir pullik hisob-kitoblar naqdsiz shaklda, omonat sertifikatlari bo‘yicha - naqdsiz hamda naqd shaklida amalga oshiriladi.

1. Sertifikatlarning qiymati O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasida ifodalanadi. Sertifikatlarni xorijiy valyutada chiqarish taqiqlanadi. Sertifikatlar 6 oydan 3 yilgacha bo‘lgan muddatga (sertifikat berilgan vaqtdan boshlab sertifikat saqlovchisi sertifikat bo‘yicha depozitni talab qilib olish huquqini qo‘lga kiritish vaqtiga qadar) chiqariladi. Sertifikat blankasida quyidagi majburiy rekvizitlar aks ettirilgan bo‘lishi shart a) «depozit sertifikati» yoki «omonat sertifikati» degan nom; b) sertifikat raqami va seriyasi; v) depozit yoki omonat qo‘yilgan sana; g) sertifikat

[4] O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksiga sharh: Professional sharhlar. T 2./O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. — Toshkent: Baktria press, 2013. 912 b.

bo‘yicha summani talab qilib olish sanasi; d) sertifikat bilan rasmiylashtirilgan omonat yoki depozit miqdori (raqamlar va so‘zlar bilan); e) bankning depozit yoki omonatga qo‘yilgan summani qaytarish va tegishli foizlarni to‘lash yuzasidan majburiyati; j) depozit yoki omonatdan foydalanish uchun foiz stavkasi; z) to‘lanishi lozim bo‘lgan foiz summasi (raqamlar va so‘zlar bilan); i) bankning nomi, joylashgan manzili; k) depozit sertifikatida omonatchi - yuridik shaxsning nomi va joylashgan manzili; l) omonat sertifikatida omonatchi - jismoniy shaxsning familiyasi, ismi, sharifi va pasport ma’lumotlari (seriyasi, nomeri, kim tomonidan va qachon berilganligi); m) bank tomonidan sertifikatni imzolash huquqi berilgan ikki nafar mansabdor shaxsning bank muhri bilan tasdiqlangan imzolari. Sertifikat blankining matnida yuqorida ko‘rsatilgan majburiy rekvizitlardan biri ko‘rsatilmagan taqdirda sertifikat haqiqiy emas deb hisoblanadi. 2. Omonat (depozit) sertifikati egasining nomi yozilgan qimmatli qog‘oz hisoblanadi va talab qilish huquqidan voz kechish (sessiya) shartnomasini tuzish orqali boshqa shaxslarga o‘tkazilishi mumkin. Depozit sertifikati bo‘yicha talab qilib olish huquqi faqat yuridik shaxsga o‘tkazilishi mumkin. Omonat sertifikati bo‘yicha talab qilib olish huquqi faqat jismoniy shaxsga o‘tkazilishi mumkin. Sertifikat bo‘yicha talab qilib olish huquqidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish bunday sertifikatning orqa tomonida yoki qo‘shimcha varaqlarda (ilovalar) o‘z huquqini berayotgan (sedent) va ushbu huquqni sotib olayotgan shaxsning (sessionariy) ikki tomonlama bitimi bilan rasmiylashtiriladi. Sertifikat bo‘yicha talab qilib olish huquqidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish sertifikat muomalada bo‘lgan davrdagina amalga oshirilishi mumkin. Sertifikatda talab qilib olish huquqidan boshqa shaxsning foydasiga voz kechish (sessiya) sertifikat blankasining orqa tomonida rasmiylashtiriladi. Agar sessiyani rasmiylashtirish uchun qo‘shimcha varaqlar talab etilsa, unda sertifikatning ilovalari ham bo‘lishi mumkin. Ushbu ilovalar sertifikat saqlovchisining talabi bilan sertifikatni muomalaga chiqaruvchi bank tomonidan rasmiylashtiriladi. Sertifikatning ilovalari raqamlangan, sertifikat blankasiga tikilgan va sertifikatni imzolash huquqi berilgan ikki nafar mansabdor shaxs tomonidan imzolanishi hamda bank (bank filiali) muhri bilan tasdiqlangan bo‘lishi lozim. Sertifikat blankasida sertifikatni chiqarish va uning muomalada bo‘lish shartlari, shu jumladan, talab qilib olish huquqidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish hamda sertifikat yo‘qotilganda sertifikat bo‘yicha huquqlarni qayta tiklash tartibi aks ettirilgan bo‘lishi lozim. Sertifikat blankasi bank tomonidan chop etiladi, qo‘lda sharikli ruchkada, yozuv mashinkasida yoki kompyuterning yozuv moslamasida (printerida) to‘ldiriladi. Sertifikat bilan rasmiylashtirilgan omonat yoki depozit miqdori raqamlar va so‘zlar bilan yoziladi. Sertifikatning raqamda yozilgan qiymatidan oldin va keyingi bo‘sh joylar,

shuningdek nominalning so‘zda yozilgan qiymatidan keyin qolgan bo‘sh joylar ikki parallel chiziq tortish yo‘li bilan to‘ldirib qo‘yilishi kerak. So‘zlar bilan yozilgan hamda raqamlar bilan belgilangan summalar o‘rtasida farq bo‘lgan taqdirda so‘zlar bilan yozilgan summa haqiqiy hisoblanadi. Sertifikatda imzo va bank muhrlarini bosmaxona usulida qo‘yish taqiqlanadi. Omonat sertifikati sessiyasini rasmiylashtirishda tuzatishlar kiritish notarial tartibda yoki sertifikatni bergan bankda amalga oshiriladi. Sertifikat blankasini omonatchiga berishda to‘g‘ri rasmiylashtirish va to‘ldirish uchun javobgarlik bank zimmasiga yuklatiladi[5].

Depozit (omonat) sertifikati blankalari, shuningdek sertifikatlarga qo‘shimcha varaqlar (ilovalar) faqat qimmatli qog‘ozlar blankalarini ishlab chiqarish huquqini beruvchi litsenziyaga ega bo‘lgan korxonalar tomonidan tayyorlanadi. Sertifikatga qo‘shimcha varaqlar (ilovalar) sertifikat blankasi bilan bir vaqtda tayyorlanadi. 3. Sertifikat saqlovchisi sertifikatni muddati tugagunga qadar yoxud sertifikatda ko‘rsatilgan boshqa holatlar yuz bergunga qadar qaytarib berishni talab qilish niyati bo‘lsa, u o‘zining bu niyatidan bankni omonatni olishni mo‘ljallayotgan sanadan kamida bir oy oldin xabardor qiladi. Bunda bank tomonidan depozit (omonat) summasiga to‘lanadigan foizlar, agar sertifikatning chiqarilish shartlarida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, talab qilib olinguncha saqlanadigan omonatlar bo‘yicha to‘lanadigan foizlar miqdorida to‘lanadi.

Sertifikatlar bank tashabbusi bilan qonun hujjatlarida belgilangan holatlarda muddatidan oldin to‘lovga taqdim etilganida, bank tomonidan depozit (omonat) summasiga sertifikatning amalda bo‘lgan muddati uchun foizlar to‘lanadi. Bunda, bank sertifikatlarning muddatidan oldin to‘lovga taqdim etilishi va ularni to‘lovga taqdim etish shartlari to‘g‘risida kamida bir oy oldin ommaviy axborot vositalari orqali e’lon berishi lozim. Agar sertifikat bo‘yicha depozitni (omonatni) olish muddati depozit saqlovchisi tomonidan o‘tkazib yuborilgan bo‘lsa, u holda bank sertifikatda belgilangan depozit summasi va hisoblangan foizlarni sertifikat egasining talabiga ko‘ra to‘lashga majburdir. Sertifikat summasini talab qilish kunidan haqiqatda sertifikatni to‘lov uchun taqdim etish kunigacha bo‘lgan muddat uchun foizlar, agarda sertifikatning chiqarilish shartlarida boshqalar ko‘zda tutilmagan bo‘lsa, talab qilib olinguncha omonatlar bo‘yicha to‘lanadigan foizlar miqdorida to‘lanadi.

[5] O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining «Banklarning depozit (omonat) sertifikatlarini chiqarish va muomalada bo‘lish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi qarori, 24.09.2008 yilda ro‘yxatdan o‘tgan, ro‘yxat raqami 1859, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2008-y., 39-son, 400-modda; https://lex.uz/uz/docs/-1394598

Bank tomonidan omonatlarni qaytarib berilishini ta’minlash uchun qo‘llaniladigan vositalar va usullar qonun va bank omonati shartnomasi bilan belgilanadi. O‘zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi qonunining 38-moddasiga binoan, banklarning moliyaviy barqarorligini ta’minlash hamda omonatchilar va kreditorlarning manfaatlarini himoya qilish maqsadida banklar va bank guruhlari hisoblab chiqarish tartibi va yo‘l qo‘yiladigan qiymatlari Markaziy bank tomonidan belgilanadigan prudensial normativlarga rioya etishi shart. .Mijozlar omonatini qaytarish fuqarolik huquqida qo‘llaniladigan an’anaviy usullarda ham ta’minlanishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi qonunining 66-moddasiga asosan, bank xizmatlari ko‘rsatishning umumiy shartlari, vositachilik haqi, tariflar va bank xizmatlari ko‘rsatganlik uchun foiz stavkalari to‘g‘risidagi axborot ochiq axborot bo‘lib, ular bankning rasmiy veb-saytida e’lon qilinadi. Mazkur axborot tijorat yoki bank sirining predmeti bo‘lishi mumkin emas. Bank tomonidan qo‘llaniladigan mijozlar omonatlari bo‘yicha omonatni qaytarish to‘g‘risidagi axborot turli vositalar bilan shu jumladan, xabar e’lon tariqasida bank amaliyotlar zaliga osib qo‘yilishi ham mumkin[6].

Bank omonatlari moliyaviy barqarorlik va jamg‘arma madaniyatini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Ular fuqarolarga o‘z mablag‘larini xavfsiz saqlash va foiz daromadi olish imkonini beradi. Turli xil omonat turlari har bir mijozning ehtiyojlari va moliyaviy imkoniyatlariga moslashgan. Shu bilan birga, foiz stavkalari, muddatlar va boshqa shartlarni diqqat bilan o‘rganish zarur. Bank omonatlarining afzalliklari ko‘p bo‘lsa-da, kamchiliklarini ham inobatga olish muhimdir. Umuman olganda, omonatlar shaxsiy moliyaviy rejalashtirish va iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashda ishonchli vosita sifatida xizmat qiladi.

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, bank omonati shartnomasi omonatchi va bank o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning murakkab, ayni paytda qat’iy tartibga solingan mexanizmi hisoblanadi. Uning o‘ziga xos xususiyatlari - majburiy yozma shakli, foiz stavkasining mavjudligi, muddatidan oldin qaytarish imkoniyati va omonatlarni sug‘urtalash tizimida ishtirok etishi - tomonlar manfaatlarining muvozanatini va omonatchining huquqiy himoyasini ta’minlaydi. Ushbu nozik jihatlarni bilish risklarni minimallashtirish va bank xizmatlaridan oqilona foydalanish imkonini beradi.

Yuqorida keltirilgan xulosalarga asoslanib ushbu sohadagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida bir qator amaliy tavsiyalar ilgari suriladi:

[6] O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 5-noyabrdagi “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi O‘RQ-580-son Qonuni, Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06.11.2019-y., 03/19/580/3994-son; https://lex.uz/uz/docs/-4581969#-4582034

Foizlar va inflyatsiya muvozanati - aholi omonatlarini saqlashda real foyda olish imkoniyatini ta'minlashga sezilarli ta’sir ko’rsatish.

Axborot shaffofligi — banklar omonat shartnomalari shartlarini oddiy va tushunarli tarzda taqdim etishi shartligini qonun bilan mustahkamlash.

Omonat faoliyatida elektron shartnomalarning huquqiy kuchini kuchaytirish, ularni QR-kod va ERI orqali rasmiylashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. O’zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi [2025 - yil 20-martgacha bo’lgan o’zgartirish va qo’shimchalar bilan] – T.: «Yuridik adabiyotlar publish», 2025-y. – 616-bet.
2. O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksiga sharh: Professional sharhlar. T 2./O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. — Toshkent: Baktria press, 2013. 912 b.
3. Fuqarolik huquqi. Q.II/M. Abdusalomov, X. Azizov, B.Axmadjonov va boshq.; O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Toshkent Davlat yuridik instituti. - Toshkent: Adolat, 2007. 882 bet - Б.ц..
4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining «Banklarning depozit (omonat) sertifikatlarini chiqarish va muomalada bo‘lish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi qarori, 24.09.2008 yilda ro‘yxatdan o‘tgan, ro‘yxat raqami 1859, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2008-y., 39-son, 400-modda; https://lex.uz/uz/docs/-1394598
5. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 5-noyabrdagi “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi O‘RQ-580-son Qonuni, Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06.11.2019-y., 03/19/580/3994-son; https://lex.uz/uz/docs/-4581969#-4582034